

KINO TASVIRIDA TEXNOLOGIK, ESTETIK VA MUALLIFLIK UYG‘UNLIGI (o‘zbek-hind hamkorlik filmlari misolida)

Alijonov Xusan Komiljon o‘g‘li – o‘qituvchi, mustaqil izlanuvchi
O‘zDSMI “Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati” kafedrası



Tayanch so‘zlar: vizual tafakkur, sahnalashtiruvchi operator, texnologik estetika, mualliflik fenomeni, transmilliy kino, o‘zbek kinematografiyasi, hind kinematografiyasi, vizual dramaturgiya, kamera rakursi, rang ritmi, yorug‘lik plastikasi, operatorlik poetikasi, kompozitsion uyg‘unlik, madaniy integratsiya, o‘zbek-hind hamkorlik filmlari.

Ключевые слова: визуальное мышление, оператор-постановщик, технологическая эстетика, феномен авторства, транснациональное кино, узбекская кинематография, индийская кинематография, визуальная драматургия, ракурс камеры, ритм цвета, световая пластика, операторская поэтика, композиционная гармония, культурная интеграция, фильмы узбекско-индийского сотрудничества.

Key words: visual thinking, cinematographer, technological aesthetics, authorship phenomenon, transnational cinema, Uzbek cinematography, Indian cinematography, visual dramaturgy, camera angle, color rhythm, light plasticity, cinematographic poetics, compositional harmony, cultural integration, Uzbek-Indian co-production films.

Kirish

Zamonaviy kinematografiya jarayonida tasviriy ifoda estetik va intellektual tafakkurning mustaqil shakliga aylangan. Ayniqsa, o‘zbek va hind kino maktablari singari turli madaniy-estetik tizimlarga mansub ijodkorlar hamkorligida yaratilgan filmlarda tasvirning texnologik, estetik va mualliflik uyg‘unligi o‘ziga xos nazariy ahamiyat kasb etadi. Bunday filmlarda sahnalashtiruvchi operatorning qarorlari rakurs, yorug‘lik, rang ritmi, kadr kompozitsiyasi voqeani tasvirlash emas, ma’naviy mazmunni vizual tafakkur orqali shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois operatorlik faoliyatini mualliflik darajasida tahlil etish kinematografik tafakkurning chuqur qatlamlarini ochishga imkon beradi.

O‘zbek kinosining psixologik sokinlik va realistik ifodaga asoslangan dramtizmi, hind kinematografiyasining musiqiylik, rang-baranglik va hissiy dinamika bilan uyg‘unlashuvi operatorlik tafakkurida yangi estetik birlikni shakllantiradi. Ushbu sintez kino tasvirining milliy bosqichini ifodalab, mualliflik estetikasining ham yangi paradigmasini yaratadi. Maqolada aynan shu uyg‘unlik operatorlik muallifligi nazariyasi nuqtayi nazaridan tahlil

qilinib, kino tilining zamonaviy rivojida estetik kodlash, madaniy integratsiya va texnologik poetika o‘rtasidagi ichki bog‘liqlik ilmiy asosda yoritiladi.

Nazariy asoslar

Zamonaviy kino nazariyasi shuni ko‘rsatadiki, kino tasviri g‘oya, hissiyot va madaniy identitetni ifoda etuvchi mustaqil vizual til sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, sahnalashtiruvchi operator (operator-postanovshchik) faoliyatida bu til badiiy tafakkurning markaziga aylanadi.

Operatorning estetik qarori rakurs, yorug‘lik, rang ritmi, kompozitsion muvozanat, obyektiv tanlovi filmning semantik tuzilishini belgilovchi ijodiy mexanizmdir. Shu bois operatorlik faoliyatini “mualliflik tafakkuri” sifatida o‘rganish kino semiotikasi va madaniy estetika nazariyalarining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Klassik kino nazariyasi vakillari S.Eyzenshteyn, [1.10] A.Bazin [2.271] va B.Balash [3.21] operatorlik faoliyatini dramatik kompozitsiyaning vizual ifodasi sifatida talqin etgan bo‘lsalar, zamonaviy tadqiqotchilar bu qarashni kengaytirib, P.Adams Sitney, D.Bordwell, Y.Lotman, L.Mulvey asarlarida uni

semiotik va psixoanalitik tafakkur bilan bog'laydilar. D.Bordwell o'zining "Narration in the Fiction Film" (1985) asarida film narratsiyasini vizual qarorlar orqali shakllanadigan uslubiy tizim deb baholaydi. Yuri Lotman esa "Semiotics of Cinema" asarida kino belgilar tizimi orqali muallifning estetik va madaniy pozitsiyasi ifodalanishini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, Laura Mulveyning "Visual Pleasure and Narrative Cinema" maqolasi kino tilida "nigoh" (gaze) estetikasi va psixologik dominantlik masalasini ilgari surib, operatorlik nuqtai nazarining gender va ideologik o'lchamlarini ochib beradi.

Mazkur nazariy manbalar asosida aytish mumkinki, vizual tafakkur idrokning texnologik shakli bo'lib, unda mualliflik qarori kamera orqali g'oya, hissiyot va madaniy ma'nolarni vizual kodlashga aylanadi. Shu jarayonda sahnalashtiruvchi operatorning texnik harakati yorug'lik plastikasini tanlash, kompozitsion muvozanatni belgilash yoki rakursni aniqlash estetik mazmun yaratuvchi faol ijodiy akt sifatida talqin qilinadi. O'zbekiston va Hindiston kabi turli kinematografik poetikaga ega maktablar hamkorligida bu jarayon ikki madaniy semiosferaning kesishgan nuqtasida ro'y beradi. H.Naficyga ko'ra, turli madaniyat vakillari hamkorligidagi film ijodiyoti "gibrid estetik muhit" yaratadi, unda vizual tafakkur milliy chegaralardan chiqib, yangi estetik birlikka aylanadi. Shu bois o'zbek-hind hamkorlik filmlarida operatorlik faoliyatini tahlil qilish madaniy integratsiya va estetik muvozanatni o'rganish demakdir. Operatorlik faoliyatining bunday nazariy talqini kino tilining uch darajasini ajratib ko'rsatadi:

1. Texnologik daraja: tasvirni yaratish vositalari (kamera, obyektiv, yorug'lik, optika);
2. Estetik daraja: kadrda rang, harakat, ritm va kompozitsiya uyg'unligi;
3. Mualliflik darajasi: tasvir orqali mazmun yaratish, vizual tafakkur bilan dramatik semantikani shakllantirish.

Ushbu uch daraja birgalikda kino tasvirining "mualliflik uyg'unligi"ni belgilaydi va aynan shu uyg'unlik operatorni estetik muallif maqomiga ko'taradi. O'zbek-hind kinematografiyasidagi hamkorlik filmlarini tahlil qilish orqali ushbu nazariy asoslar amaliy misollarda o'z ifodasini topadi.

Metodologiya va film tahlil usullari

Kinematografik tahlilda sahnalashtiruvchi operatorning faoliyatini o'rganish an'anaviy estetik yondashuvdan tashqariga chiqishni, vizual tafakkur jarayonini ilmiy, semiotik va texnologik

birlikda ko'rishni taqozo etadi. Operatorlik san'atining uch darajasini texnologik, estetik va mualliflik qatlamlarini bir butun tizim sifatida tahlil qilish mumkin.

Bu borada kadr-kompozitsion tahlil, stilistik-semiotik dekodlash, komparativ (solishtirma) yondashuv, psixologik-estetik tahlil va empirik film tahlili usullari tanlanadi. Kadr-kompozitsion tahlil. Bu metod operatorning rakurs tanlovi, yorug'likning yo'nalishi, rang balansi va kadr ichidagi obyektlar o'zaro nisbatini o'rganishga xizmat qiladi. Har bir sahna operator tomonidan vizual dramaturgiyaning bir bo'lami sifatida shakllantiriladi. Kompozitsion tahlil yordamida tasvirning semantik markazi va uning hissiy yukini aniqlash mumkin. Masalan, "Ali bobo va qirq qaroqchi sarguzashtlari" filmida vertikal va diagonal chiziqlarning ritmik uyg'unligi, yoki "Jungle qonuni bo'yicha" filmidagi dinamik kamera harakatlari orqali insoniy ziddiyatlar vizual ifodaga ega bo'ladi. Stilistik-semiotik dekodlash. Y.Lotmanning "*Semiotics of Cinema*" asaridagi belgi tizimlari konsepsiyasiga asoslanib, operatorlik yechimlarining semantik tabiatini tahlil qilish nazarda tutiladi. Yorug'lik, rang, kamera nigohi, obyektiv harakati bularning har biri vizual belgiga aylanadi va ma'lum madaniy konnotatsiyani ifodalaydi. Ushbu metod film matnini "belgilar tili" sifatida o'qish imkonini beradi. Natijada operatorlik faoliyati estetik yoki texnik emas, balki ma'no yaratuvchi semiotik jarayon sifatida talqin qilinadi. Komparativ (solishtirma) yondashuv. O'zbek va hind kinematografiyasiga xos operatorlik poetikasini solishtirish orqali madaniy-estetik uyg'unlikning shakllanish mexanizmlari o'rganiladi. Hind kinosining vizual teatrqa yaqin dinamik estetikasini o'zbek kino maktabining psixologik statikasi bilan solishtirish natijasida vizual tafakkurda sintezlangan madaniy model aniqlanadi. Bu yondashuv operatorning mualliflik qarorini milliy estetik kodlar va transmilliy ifoda o'rtasida baholash imkonini beradi.

Psixologik-estetik tahlil. Operatorning vizual qarorlari ko'pincha qahramonlar ichki holatini yoki dramatik ziddiyatni ifodalashga xizmat qiladi. L.Mulveyning "nigoh estetikasi" (gaze theory) konsepsiyasi asosida kamera subyektivligi, gender tafakkur va emotsional markaz o'rganiladi. Misol uchun, filmidagi bosh qahramon nigohi orqali berilgan POV (point of view) kadrlar psixologik zo'riqishni kuchaytiradi. Bu esa operatorning hissiy tafakkurda faol muallif sifatidagi rolini ochib beradi.

Empirik film tahlili. Empirik tahlil real film kadrlari, kamera harakati va texnik parametrlarni

tahlil qilish orqali nazariy qarashlarni amaliy dalillar bilan mustahkamlashni nazarda tutadi. Filmning kadr-by-kadr struktural tahlili operatorning estetik qarorlarini aniq vizual misollarda ochib beradi. Bu metod orqali texnologik vositalar (optika, rang ishlovi, stabilizatsiya, filtrlar) bilan badiiy maqsad o'rtasidagi uyg'unlik darajasi aniqlanadi.

Tahlil usullari quyidagi nazariy manbalarga tayangan holda amalga oshiriladi: David Bordwell "Narration in the Fiction Film" (1985) filmning vizual narratsiyasi va dramatik strukturasi tahlil qilish uchun, Yuri Lotman "Semiotics of Cinema" (1976) kino belgilar tizimini o'rganish uchun, Laura Mulvey "Visual Pleasure and Narrative Cinema" (1975) gender va nigoh estetikasini tahlil qilish uchun, Hamid Naficy – "An Accented Cinema: Exilic and Diasporic Filmmaking" (2001) milliy kino estetikasi uchun, P. Adams Sitney "Visionary Film: The American Avant-Garde" (2002) vizual tafakkurning poetik ko'rinishlarini tahlil qilish uchun qo'llash to'g'ri bo'ladi. Mazkur metodlar majmuasi o'zbek-hind hamkorlik filmlarida operatorlik san'atini estetik, semiotik, psixologik va madaniy tahlilga imkon beradi. Natijada sahnalashtiruvchi operatorning vizual tafakkur orqali badiiy mazmun yaratishdagi mualliflik roli ilmiy asosda aniqlanadi.

Xulosa. O'zbek va hind hamkorlik filmlarini nazariy tahlil qilish adabiyotlarini o'rganish

natijasida aniqlandiki, sahnalashtiruvchi operator kino tasvirining texnik ijrochisi emas, vizual tafakkur orqali mazmun, hissiyot va g'oya yaratuvchi mustaqil muallifdir.

Operatorlik faoliyatining texnologik, estetik va mualliflik qatlamlarini o'zaro uyg'unlikda ko'rish kino san'atining yangi nazariy bosqichini belgilaydi. Yorug'lik, rakurs, rang ritmi, kompozitsion yechim va kamera harakatlari orqali operator filmning semantik strukturasi shakllantiradi. Shu orqali tomoshabinning idrokida hissiy va falsafiy qatlam hosil qiladi. Bunday yondashuv kino tasvirini g'oyaviy-estetik kodlash tizimi sifatida talqin etish imkonini beradi.

O'zbek kinosining ichki psixologik drammatizmi bilan hind kinematografiyasining musiqiy va rang-barang vizual ifodasi sintezida yuzaga kelgan badiiy uyg'unlik kino tafakkurining yangi bosqichini ifodalaydi.

Bu uyg'unlik operatorlik san'atida madaniy-estetik integratsiya, vizual dramaturgiya va texnologik poetikaning birlashgan modelini yaratadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sahnalashtiruvchi operatorning ijodiy qarorlari kino muallifligi konsepsiyasida markaziy o'rinni egallaydi hamda o'zbek-hind hamkorlik filmlarini nazariy jihatdan ham xalqaro kino maktablari bilan teng darajada tahlil qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Базен А. Что такое кино? – М.: Искусство, 1972. – 382 с.
2. Эйзенштейн С. Избранные произведения. В 6-и томах. – М.: Искусство, 1964 – 1971.
3. Балаш Б Кино: Становление и сущность нового искусства. Пер.с нем. – М.:Прогресс, 1968. – 328 с.
4. P.Adams. Visionary Film: The American Avant-Garde, 1943-200. – New York.: Oxford university press, 2002. – 446 p.
5. D.Bordwell. Narration in the Fiction Film. – New York.: The University of Wisconsin press, 1985. – 359 p.
6. J.Lotman. Semiotics of Cinema. New York.: University of Michigan, 1981. – 106 p.
7. L.Mulvey. Visual Pleasure and Narrative Cinema. – New York.: Oxford university press, 1975.

REZYUME. Maqolada o'zbek va hind kinematografik hamkorligi doirasida yaratilgan filmlar tasvirida texnologik, estetik va mualliflik uyg'unligi masalasi nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Sahnalashtiruvchi operator faoliyatining mohiyatini texnik ijro darajasidan yuqori, vizual tafakkur orqali mazmun va hissiy semantika yaratish jarayoni sifatida talqin etadi. Kompozitsion yechim, yorug'lik plastikasi, rang ritmi, rakurs tizimi va madaniy-estetik integratsiya operatorlik muallifligi nazariy konsepsiyasi nuqtayi nazaridan o'rganiladi. O'zbek kinosining sokin drammatizmi va hind kinematografiyasining dinamik vizual poetikasi sintezida yuzaga kelgan estetik uyg'unlik, kino tilining yangi bosqichini shakllantiruvchi nazariy asos sifatida tahlil etiladi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье теоретически анализируется проблема технологического, эстетического и авторского единства в кинематографическом изображении на примере фильмов, созданных в рамках узбекско-индийского сотрудничества. Исследование рассматривает деятельность оператора-постановщика не как техническое исполнение, а как процесс создания смыслового и эмоционального содержания посредством визуального мышления. Композиционные решения,

световая пластика, ритм цвета, система ракурсов и культурно-эстетическая интеграция изучаются в контексте авторства оператора. Синтез сдержанной драматургии узбекского кино и динамичной визуальной поэтики индийского кинематографа анализируется как теоретическая основа формирования нового этапа киноязыка.

SUMMARY. This article provides a theoretical analysis of the technological, aesthetic, and authorial unity within cinematic imagery, based on films produced through Uzbek–Indian collaboration. The study interprets the work of the cinematographer not merely as a technical function but as a process of creating meaning and emotional semantics through visual thinking. Compositional design, light plasticity, color rhythm, camera angles, and cultural-aesthetic integration are examined within the framework of cinematographic authorship. The synthesis of the restrained dramaturgy of Uzbek cinema and the dynamic visual poetics of Indian film is analyzed as a theoretical foundation for the formation of a new stage of cinematic language.